

AZIM XOJA HIKMATLARINING MAVZUIY TARKIBI

Sayfullayeva Mehrangiz Zayniddin qizi

*Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fakulteti 2-kurs magistranti*

Azim Xoja Eshon o'z hikmatlarida insonlarni dinu diyonatga, vijdon va imonga, insonparvarlik va adolatga chaqiradi. Insoniylikning eng yorqin belgisi tenglik, kamtarinlik va xokisorlik ekanini ta'kidlab bunday yozadi:

Bandalikni shartidur ojizlig'u sinug'luq,

Sulton bo'lsang olamg'a hargiz qilma ulug'luq.

Ahmad Yassaviyning nafsni tiyish, Haq ishqisi va zikri yo'lida riyozat chekishga doir:

Nafsingni san o'z ra'yig'a qo'yma zinhor,

Yemay, ichmay toat bilan bo'lg'il bedor.

Oxir bir kun ko'rsatgusi sanga diydor,

Bedor bo'lg'an anda diydor ko'rар, do'stлar.

Ayo g'ofil, Haq zikrini tildin solma,

Dunyoliqdin bir zarrasin qo'lg'a olma.

Eranlarning orqasidin hargiz qolma,

Yo'lg'a kirgan oxir murod topar, do'stлar.

Ishq bog'ini mehnat tortib ko'kartmasang,

Xorliq bilan shum nafsingni o'ldurmasang.

Alloh deyub ichga nurin to'ldurmasang,

Valloh-billoh sanda ishqni nishoni yo'q. –

Kabi da'vatlarini Azim Xoja quyidagicha shaklda davom ettiradi:

Dunyo mehrin qo'ymayin, Haq yodini aymayin,

Nafsing ko'zin o'yayin, bo'yning bo'lmas solug'luq.

Har kimga tegsa dard, talab beqaror etar,

Oshiq emastur ulki, dili beqarori yo'q.

Tanni salohini tilasang dardmand bo'l,

Bemordur tanikim, aning dard, yori yo'q.

Shoir bu misralarida o'tkinchi dunyoga haddan ziyod mehr-muhabbat qo'yib, foniylariga aldanmaslik, Haq va haqiqatni unutib qo'ymaslikni

eslatadi. Uningcha, har bir odam insoniyatni yo'ldan ozdiruvchi mash'um «nafsning ko'zini o'yishi» darkor. Aks holda, nafs domiga tushgan kimsa inson qiyofasidan chiqajagi muqarrar. Shoir bir tomondan insonni to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi dunyo va sarkash nafsni malomat qilsa, ikkinchi tomondan ishq dardi bilan yashash lozimligini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, zulm va zo'ravonlikka qarshi kurash badiiy adabiyotning eng dolzarb mavzularidan bo'lib kelgan. Ayniqsa, tasavvuf adabiyotida bu masalaga ko'p va xo'b e'tibor qaratilgan. Yomonlik va razolatning eng asosiy manbai sifatida nafs va shayton e'tirof etilgan bo'lib, orif shoir o'z to'rtliklarida bu ikki «dushman»ga qarshi kurashish, ularning vasvasalaridan qutulish yo'llarini ko'rsatadi:

*Bandaman deb g'aflat ichra yotsa bo'lmas,
Himmat qilmay nafs tog'idin o'tsa bo'lmas.
Nafsu shayton ko'zlarini o'ysa bo'lmas,
Hamdam bo'lmay nafs ko'zini o'yg'onlarga.*

Payg'ambar alayhissalom bir jang safaridan qaytayotib nafs bilan mujohada qilishga «ulug' kurash» deya ta'rif berganlar. Azim Xoja Eshon bu ulug' kurashda muvaffaqiyat qozonish uchun «nafs ko'zini o'yg'onlarga hamdam bo'lish»ni tavsiya etadi. Ya'ni, doimo insonlarga yaxshilikni ko'zlovchi, rahm-shafqatli, har lahza Haq yodini aytib yuruvchi, kibru riyoni tark aylagan oqil va dono zotlar bilan birga bo'lish kerak, deydi.

Azim Xoja Eshon hikmatlarida nafs va dunyo doimo insoniyatning g'animi sifatida tasvirlangan. Mutasavvif shoir nazarda tutgan dunyo asosan odamlarni to'g'ri yo'ldan adashtiruvchi boylikdir. Mashhur so'fiy Yahyo ibn Muoz «oltin-kumush chayondir. Aning afsunini o'rganmaguncha ilik uzatmag'ilkim, seni halok qilur. Aning afsuni haloldin topib, haq-rostga xarj qilmoqdun» degan ekan. SHu uchun shoir dunyo moli va o'tkinchi rohat-farog'atga berilib ketma, savobli ishlarni bajar, insonlarga xayr-u saxovatli bo'l, beva-bechoralarga, yetim-yesirlarga yordam qo'lini cho'z, odil va pokiza hayot kechir, deydi.

Azim Xoja Eshon yassaviya maktabi vakili sifatida ilohiy haqiqat va insoniy kamolot sari intilayotgan soliklarga pand-nasihatlar orqali yo'l ko'rsatadi. Ayniqsa, toliblarning odob-axloqli, ma'rifatli bo'lishlariga e'tibor qaratadi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, nafsini tarbiyalab qanoatni odat qilgan, xalqning malomat va ihonatiga toqat etgan solik «chin toliblar qatoridan» joy oladi. Bunday orifning barcha ishi adab va go'zal xulqqa aylanib, yursa-tursa har ishida Haq va xalqni mamnun qiladi.

Xalqimiz orasida eran, avliyo, valiy kabi nomlar bilan shuhrat qozongan ko'plab zotlar o'tishgan. Ahmad Yassaviy, Hakim ota Qul Sulaymon, Zangi

ota, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ubaydulloh Ahror kabi komil siymolar shular jumlasidandir. Lekin o'tmishda ularning tarixiy xizmatlarini mensimagan, ularning yuksak kamolotini e'tirof etmagan nodon kimsalar ham albatta bo'lgan. Azim Xoja Eshon o'z hikmatlarida ana shunday kimsalarni qattiq tanqid qiladi:

*Bilur bilmas, aqlingizga bino qo'yub,
Eranlarga til tekizmang, do'stlarimo.
Qo'rqarmankim, yiqilg'aysiz, yo'ldin toyib,
Eranlarga til tekizmang, do'stlarimo.*

*Yuz ixlosdin ortuq erur pir rizosi,
Bo'lur bo'lsa hidoyati muddaosi.
Pir rizosi – nafs izosi, ruh g'izosi,
Eranlarga til tekizmang do'stlarimo.*

Shoir ushbu misralarni ulug' ustozi Ahmad Yassaviyning quyidagi to'rtliklari ta'sirida yozganligi shubhasizdir:

*Keling, do'stlar, pir xizmatin bayon aylay,
Eshitib, uqung, xizmat qiling, do'stlarimo.
Xorliq-zorliq, mashaqqatni ayon aylay,
Eshitib, uqub, xizmat qiling, do'stlarimo.*

*Pirni lutfi Haqni lutfi tariqatda,
Haq in'omi pirga etar haqiqatda.
Hodiy bo'lub yo'lg'a solg'on ma'rifatda,
Eshitib, uqub, xizmat qiling, do'stlarimo.*

Roziliqi «yuz ixlosdin ortuq bo'lgan» Nasimi, Mansur Halloj kabi valiy zotlarning ma'nnaviy barkamoliga ishonmasdan, ularni sinamoqchi bo'ladijan «nomusi yo'q, aqli noqis garang»larni shoir shunday qoralaydi:

*Azizlarni sinaguncha o'zni sina,
Bormu sizda hirsu havo nomusu nang?
O'z holini o'zi bilmas uldur garang,
Eranlarga til tekizmang, do'stlarimo.*

Azim Xoja Eshon bunday kimsalarga: «Oqil ersang nasihatni o'zungga qil, Eran aytgan: «O'zgani qo'y, o'zungni bil» deya nasihat beradi. Shoirning e'tiroficha, «fahmu donishlari ladun ilmi» bo'lgan pokdomon, xudojo'y bunday zotlarga til tekizishdan saqlanishi va ularga ehtirom ko'rsatish zarur. Shoir nima uchun eranlarga bu daraja hurmat ko'rsatadi? Chunki ular ma'nnaviy-ruhiy jihatdan pok, nafsi tarbiyalagan, axloqan barkamol shaxslar bo'lib, o'zlarining insonparvar fikr-qarashlari bilan el-ulusni zulmatdan nurga

етакланганлар. Нақ ва ҳақиқат учун јонларни фидо етганлар. Албатта, шоирнинг bunday fikrlari ijtimoiy hayotda tenglik va adolatning o'rnatilishiga, fuqarolar orasida totuvlik va birdamlilikning barqarorlashuviga, ajdodlar xizmatini munosib qadrlashga doimiy da'vatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.** Рафиддинов С. Ҳикмат. Азим хожа эшон. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 88 б.
- 2.** Азимхожа Эшон. Мурод-ул-ошиқин. Девон. Тайёрловчи: Б.Хасанов. – Тошкент: ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи, 2009. – 119 б.
- 3.** Дўстқораев Д. Яссавий ким эди?. – Т.: А.Қодирий, 1994. – 88 б.
- 4.** Жўрабоев О. Ҳазиний тўра. – Тошкент: "Фан", 2007. – 135 б.
- 5.** Жўрабоев О. Матннинг матности сирлари (Мумтоз битиклар ва Абдулла Қаҳҳор асарлари таҳлили асосида). – Т.: "Tamaddun", 2017. – 200 б.
- 6.** Хожа Аҳмад Яссавий. Ҳаёти, ижоди ва анъаналари. Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Иброҳим Ҳаққул, Нодирхон Ҳасан, Азиза Бектош. –Т.: Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2001. –152 б.
- 7.** Яссавий А. Ҳикматлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 256 б.
- 8.** Яссавий А. Девони ҳикмат. – Т.: Мовароуннаҳр, 2006. – 271 б.